


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Qo'qon DPI.
ILMIY
XABARLAR**



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ**

МУНДАРИЖА

Аниқ ва табиий фанлар		
Кимё		
1.	ВОХИДОВА Н.Р., РАШИДОВА С.Ш. Синтез хитозанстабилизированных наночастиц металлов.....	6
2.	Д.С. САЛИХАНОВА, И.Д.ЭШМЕТОВ, Д.А. АЗИМОВА Изучение свойств термоактивированного дефеката при очистке кислых стоков.....	12
3.	SH.A.KULDASHEVA, A.L.AXMADJONOV, I.D.ESHMETOV, D.X.ABDURAXIMOV Suvda eruvchan polimerlar yordamida qo'chma tuproq-qumlarda mustahkam struktura hosil qilish.....	19
4.	V.U.XO'JAYEV, I.L.XIKMATULLAYEV O'zbekiston hududida o'suvchi <i>PHYSALIS ALKEKENGII</i> o'simlik alkaloidlari.....	23
5.	V.U.XO'JAYEV, N.SH.AZIMOV <i>COMPANULACEA</i> oilasiga mansub <i>CODONOPSIS CLEMATIDEA</i> o'simligidan - ekstrakt olish usulini optimallashtirish.....	25
6.	F.M.ОЧИЛОВ, Ш.КУШНАЗАРОВА Сутнинг ёғлилик даражасини аниқлаш усуллари.....	27
7.	ABDUKODIROV N., AKHUNBAYEV A., TOJIYEV R. Improvement of drum dryer design.....	31
География		
8.	Ж.Э.ХОЛМИРЗАЕВ Jizzax viloyati antropogen gidrografik tarmoqlarining monitoring tahlili.....	34
9.	Д.МУМИНОВ, Э.МУМИНОВА Қишлоқ жойларни иқтисодий – ижтимоий географик тадқиқ этишнинг баъзи масалалари.....	40
10.	О.М. ҚЎЗИБОЕВА, Ф.ХОДЖАМОВА, Д.ХАСАНОВА Дарё водий ландшафтларининг морфологик структураси ва парадинамика комплекслари.....	43
Иқтисод		
11.	Ҳ.ЮЛЧИЕВ Ўзбекистон енгил саноатининг хусусийлаштириш ва давлат тасарруфидан чиқарилиши.....	47
Информатика		
12.	У.Й.АКБАРОВ, С.З.АБДУЛЛАЕВА Функционал анализ элементлари мавзуларини ўқитишда фойдаланиладиган дидактик воситалар.....	51
13.	I.M.SIDDIQOV, O.SH.SHERALIYEV Masofaviy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni.....	56
14.	С.И. ХОНТУРАЕВ Оммавий хизмат кўрсатиш тизимларини моделлаштириш.....	59
Ижтимоий-гуманитар фанлар		
Юридика		
15.	Х.Т. ОДИЛҚОРИЕВ	65

The above kinematic diagram shows a new economical design of a 2.2x14 m dispersed material drying drum. It is mounted on a grid made of St40 steel with a diameter $d = 1$ m and a thickness of 2 mm along the length of the drum. The centers of the drum and mesh diameter are lowered on top of each other at point O and fastened to the drum body on all four sides at equal intervals. The dried raw material is fed directly to the grid through the feeder. The grid that is installed on the device is made in two different ways. For the summer season (quartz sand humidity 5-8% May-

October) the mesh holes are 5 mm, for the winter season (quartz sand humidity 12-18% November-April) the first four meters are larger 10 mm and the rest are smaller 5 mm is prepared as follows. The grids are replaced periodically. The advantage of the installed grid is that it simultaneously sorts and dries the raw material, preventing the breakage of the paddles (nozzles). The contact surface with the raw material and the heating agent increases. As a result, the drying process is accelerated and time and energy consumption are reduced.

References.

1. Ivanov V.E. Drying of dispersed materials in sushilke kipyashchego sloya peregrivnogo deystviya. Diss... kand. techn. science. - Ivanovo, 2010, - 181 p.
2. Tojiev R.J., Sadullaev X.M., Axunbaev A.A. Mirsharipov R.X. Study of the main parameters of the process of ammonium nitrate granulation // International scientific conference "Global science and innovations 2019: central asia" - Astana, Kazakhstan, 2019.
3. Миршарипов Р.Х., Абдуқодиров Н.Ш., Фаниева Г.Ш. Конвектив қуритгичларда гидродинамик режимлар. "Машинасозлик ишлаб чиқариш ва таълим муоммолар ва инновацион ечимлар" 19-20. 09. 2019й. 314-315 б.
4. Tojiev R.J., Axunbaev A.A. Mirsharipov R.X. Optimization konstruksii sushilnogo barabana na osnove sistemnogo analiza protsessa // Universum: tehnichekie nauki. - 2020. - №. 11-1 (80).
5. Tojiev, R J.; Axunboev, A. A.; Mirsharipov, R. X.; and Abdukadirov, N. (2019) "DRYING GLASS FEED STOCK IN DRUM DRIER FOR MANUFACTURING GLASS PRODUCTS," Scientific-technical journal: Vol. 23 : Iss. 3 , Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/ferpi/vol23/iss3/3>

JIZZAX VILOYATI ANTROPOGEN GIDROGRAFIK TARMOQLARINING MONITORING TAHLILI

МОНИТОРИНГ-АНАЛИЗ АНТРОПОГЕННЫХ ГИДРОГРАФИЧЕСКИХ СЕТЕЙ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

MONITORING ANALYSIS OF ANTHROPOGENIC HYDROGRAPHIC NETWORKS OF JIZAK REGION

Ж.Э.Холмирзаев –тадқиқотчи, Жиззах ДПИ

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jizzax viloyatining geografik omillar ta'sirida hosil bo'lgan antropogen gidrografik tarmoqlari va chetdan kirib keluvchi suv resurslarining viloyatdagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. suv resurslari, geografik omillar, gidrografik inshootlar, kanallar, suv omborlar, vegetatsiya va novegetatsiya davrlar, xo'jalik faoliyatining ta'siri.

Аннотация. В данной статье анализируется роль водных ресурсов в Джизакской области, наряду с антропогенными гидрографическими сетями, созданными природными условиями и географическими факторами.

Ключевые слова. водные ресурсы, географические факторы, гидрографические сооружения, каналы, водохранилища, растительность и новинки, влияние хозяйственной деятельности.

Annotation. This article analyzes the role of water resources in the Jizzakh region, along with anthropogenic hydrographic networks created by natural conditions and geographic factors.

Key words. water resources, geographical factors, hydrographic facilities, canals, reservoirs, vegetation and novelties, the impact of economic activities.

Suv kundalik hayotimizning ko'plab sohalarida qo'llanilishi bilan boshqa tabiiy resurslardan katta farq qiladi. Chunki suv resurslarining miqdori va sifati jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Bu esa suvning juda muhim bebaho tabiiy resurs ekanligidan dalolat beradi.

Jizzax viloyati hududida joylashgan antropogen yo'l bilan hosil bo'lgan kanallar va suv omborlar ishning obyekt sifatida tanlab olingan.

Jizzax viloyatida antropogen yo'l bilan hosil bo'lgan gidrotexnik inshootlardan samarali foydalanish, izdan chiqqan inshootlarni tartibga solish, vegetatsiya, novegetatsiya davrida kanal va suv omborlardan chiqayotgan suvni tartibga solishi va undan oqlona foydalanish ishning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Viloyatning antropogen gidrografik tarmoqlarini o'rganish o'tgan asrning 80-yillarda boshlangan.

A.F.Slyadneva, K.G.G'aniyeva (1965), X.T.To'laganov (1971), A.Saidov, O.Hazratqulov (1974), N.V.Gorelkin, A.M.Nikitin (1976) kabi olimlar tomonidan viloyatning yer usti suvlari qisman o'rganilgan. Yer osti suvlarini o'rganishda A.I.Shevchenko (1957), E.M.Borisov, S.M.Mirzaev (1971) kabi olimlar hissa qo'shganlar. Ammo, mazkur tadqiqotlarda viloyatning antropogen gidrografik tarmoqlari alohida kompleks sifatida o'rganilmagan.

Jizzax viloyati respublikamizning iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan hududlardan hisoblanadi. Jizzax viloyati 1973- yilda tashkil topgan

bo'lib, respublika maydonining 4.5% ni, suv resurslarining 5%ni tashkil etadi. Maydonning katta qismi dehqonchilikda foydalaniladi. Ayniqsa, dehqonchilikda strategik ahamiyatga ega bo'lgan paxta va g'alla eng katta maydonlarni egallaydi.

Tabiiy jihatdan viloyat hududi katta geomorfologik strukturaga ega bo'lgan maskan hisoblanib, janub tog'lik, shimol tekislik qismlariga bo'linadi. Janubiy qismidagi rayonlar asosan suvdan foydalanishda tabiiy manba (soy, buloq)lardan foydalansa, shimoliy, tekislik qismi esa antropogen yo'l bilan hosil bo'lgan (kanal, suv omborlar) gidrotexnik inshootlardan foydalanadi. Xususan, viloyatda 6 ta suv ombori va Zarafshon daryosidan Tuyatortar, Sirdaryodan, Janubiy Mirzacho'l kanal (JMK) lari eng asosiy sug'orish tizimlari yisoblanadi. Ushbu inshootlari qishloq xo'jaligining eng asosiy sug'orish "qon tomirlari" hisoblanadi. Viloyatning asosiy kanallari kam sonli bo'lsa-da, ular kuchli tarmoqlangan bo'lib, qurg'oqchil hududlarni suv bilan ta'minlaydi. Shu sababli ular ko'p tarmoqlarga bo'linib ketgan (1-jadval). Jizzax vohasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan shunday kanallardan biri Janubiy Mirzacho'l kanalidir.

Janubiy Mirzacho'l kanali - A.A.Sarkisov nomidagi Janubiy Mirzacho'l kanali O'zbekistondagi yirik kanallardan biri. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududidan o'tadi. Bekobod shahridan 7 km berida Farhod gidrouzelidan boshlanadi. Janubiy Mirzacho'l kanali va uning yirik tarmoqlari 1957-1962-yillarda qurilgan. Mirzacho'lning janubi sharqdan g'arbgga oqadi. Uzunligi 127,7 km. bosh qismida suv

har yil katta miqdordagi suv behuda bug'lanib ketadi.

Aytish joizki, tabiiy muhitni inson xo'jalik faoliyatining zararli ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq ko'pgina muammolar keng ko'lamdagi sa'yi harakatlarni taqozo etadi. Katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan sharoitda muammolarni faqatgina umumiy hamkorlik asosidagina hal qilish mumkin.

Suvni taqsimlash va boshqarishni samarali madaniyatli uslubini amalga oshirish uchun aniq suv o'lchash imkoniyatlariga ega bo'lishi talab etiladi. Suv omboridan magistral kanallargacha, magistral kanallardan xo'jaliklararo kanallargacha, xo'jaliklararo kanallardan har bir quloqlargacha taqsimlayotganda suvning aniq miqdorini tizimli nazorat qilishga erishish borasida izlanishlar zarur va dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T.: 1996.
2. Rasulov A.R., Hikmatov F.H., Aytbayev D.P. Gidrologiya asoslari. – T.:1995.
3. "Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi" ma'lumotlari.
4. Hakimov Q.M., Adilova O.A., Jizzax viloyati geografiyasi. – T.: 2015.
5. Hikmatov F.H., Yunusov G.X., Artikova F.Y., Erlapasov N.B., Dovulov N.L. Daryolar gidrologiyasi. – T.: 2017.

ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИНИ ИҚТИСОДИЙ – ИЖТИМОЙ ГЕОГРАФИК ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИ

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ СЕЛЬСКИХ ЗОН

SOME ISSUES OF ECONOMIC AND SOCIAL GEOGRAPHICAL RESEARCH OF RURAL AREAS

Д.Мўминов –г.ф.н., доцент
Э.Мўминова –ўқитувчи, Қўқон ДПИ

Аннотация. Мазкур мақолада қишлоқ жойларини тадқиқ этишнинг иқтисодий, ижтимоий, экологик жиҳатлари таҳлил қилинган. Қишлоқ жойлардан самарали фойдаланишда “табиат – аҳоли – хўжалик” тизими уйғунлигини ҳисобга олиш масалалари ёритилган.

Таянч сўзлар. қишлоқ жойлари, қишлоқ жойларининг геозкологик хўжалик ҳолати, қишлоқ жойларининг геозкологик-хўжалик жиҳатдан зўриқиш даражаси, ландшафт табиий таркибининг ўзгариши, агродемографик босим, ҳудуднинг геозкологик-хўжалик мувозанати, аънавий ва инновацион хўжалик тармоқлари.

Аннотация. В этой статье рассматриваются экономические, социальные, экологические аспекты исследования в сельской местности. Рассмотрены вопросы эффективного использования сельской местности с учетом единства «природа-население-хозяйство».

Ключевые слова. сельская местность, геозколого-хозяйственное состояние сельской местности, геозколого-хозяйственная напряженность сельской местности, изменение природного состава ландшафта, агродемографическая нагрузка, геозколого-хозяйственный баланс территории, традиционные и инновационные отрасли хозяйства.

Sh.Rashidov tumanidagi R.Qosimov hududlariga;

G'alladan bo'shagan maydonlar o'rnidagi takroriy ekinlarga viloyat bo'yicha jami 16,3 mln.m³ suv yetkazib berish imkoniyati mavjud. Bu suv bilan jami 3694 gektar takroriy ekinlarni sug'orish mumkin bo'ladi, jumladan:

Baxmal tumanida 1000 ga;
G'allaorol tumanida 878 ga;
Sh.Rashidov tumanida 1816 ga;
Sirdaryo daryosiga bog'langan maydonlarga viloyatga jami 1511,5 mln.m³ suv yetkazib berilib, shundan:
paxta maydonlariga – 552,5 mln.m³;
g'alla maydonlariga – 249,3 mln.m³;
aholi tomorqa yer maydonlariga – 122,0 mln.m³;
boshqa ekinlarga – 588,2 mln.m³ suv berish imkoniyati mavjud.

G'alladan bo'shagan maydonlar o'rnidagi takroriy ekinlarga viloyat bo'yicha jami 237,7 mln.m³ suv yetkazib berish imkoniyati mavjud. Bu suv bilan jami 54013 gektar takroriy ekinlarni sug'orish mumkin bo'ladi, jumladan:

Arnasoy tumanida 7500 ga;
Sh.Rashidov tumanida 2540 ga;
Do'stlik tumanida 9620 ga;
Zomin tumanida 6138 ga;
Zarbdor tumanida 7960 ga;
Zafarobod tumanida 6980 ga.
Mirzacho'l tumanida 4880 ga.
Paxtakor tumanida 7995 ga.
Yangiobod tumanida 620 ga.

2019-yilda esa vegetatsiya davriga 2247 mln. m³ , novegetatsiya davriga 591 mln. m³ jami 2838 mln. m³ suv sarflangan. Foizlarda asoslaydigan bo'lsak 79% sug'orishga, 21% sho'r yuvishga sarflangan. Mazkur sarflangan suv boshqa viloyatlarga qaraganda ancha ko'pdir. Ammo yerdan olinayotgan mahsulotlar mahsuldorligi judayam past ko'rsatkichni beradi. Bu esa yer bonitrovkasini oshirish uchun kerakli agrotexnik choralarini o'z vaqtida ko'rish kerakligini anglatadi.

Mazkur mintaqadagi barcha sug'orish kollektor, drenaj, ochiq va yopiq zavur, latok, ariq kanallar hozirda o'zining yaroqlilik muddatini o'tab bo'lgan. Bunga sho'rolar davrida berilgan planni ortig'i bilan

bajarish, kim o'zar, o'zini hukumatga yaxshi ko'rsatish kabi illatlar oqibatida yerga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lganlik sabab bo'lgan. Viloyatda qishloq xo'jalik uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 80% aynan shimoliy hududlarga to'g'ri keladi. Bu esa asosan Sirdaryodan kelayotgan kanallar orqali amalga oshiriladi. Kanaldan (JMMK, DM) nosug'orish uchun 108 mln. m³ sug'orishga ajratilgan limit 365 mln. m³ suv kirib keladi, bu qariyb 90% JMMK va DMga bog'liq ekanligini anglatadi.

Xulosa o'rinda bugungi kunga kelib aholining ko'payishi natijasida unumdor sug'oriladigan yerlarga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Viloyatda bunday yerlar ko'proq kanallar orqali sug'oriladi. Kanal va suv ombor ta'sir zonasidagi dala maydonlari va landshaftlarning yil davomida o'zgarishi kanal va suv omborlardagi suvining miqdoriga bog'liq. Kanal to'lib oqqanda uning suvi atroflardagi pastqamliklarga sizadi va ko'lmaklar hosil qiladi. Kanal suvsiz qolganda teskari jarayon kuzatiladi, yani atrofdagi sho'rlangan yerostli suvlari kanal o'zaniga tomon oqadi, natijada mavsumiy o'zgaruvchan o'ziga xos landshaft namoyon bo'ladi. Sho'rxak landshaftlari pastqam yerlarda, sizot suvlar yer betiga yaqin va yer betiga chiqib turgan erlarda keng tarqalgan. Natijada bunday yerlarning qayta sho'rlanishi, hosilsizlikka, ekologiyaning buzilib, ba'zi hatarli darajadagi o'pka sili, saraton kabi kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Viloyatdagi kanallar suvini qadimdan ekillib kelinayotgan va hozirda ekilmay qolgan yerlarga yo'naltirish kerak. Kanal bo'yida hosil bo'lgan yulg'un, qamish, tol, turang'il teragi kabi o'simliklardan iborat to'qayzorlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Ko'p hollarda har yili kuz-qish fasllarida yoqib yuboriladi. Uning o'rniga mevali va yog'ochbop daraxtlarni ekish maqsadga muvofiq (non jiyda, o'rik, g'ujum va boshqalar). Kanal atrofidagi pastqamliklarda hosil bo'lgan ko'lmaklarni tuproq-qum bilan to'ldirish lozim. Aks holda

o'tkazish imkoniyati 350 m³/s. Janubiy Mirzacho'l kanalning 35-km dan Yangiyer shahri joylashgan, quyi qismi Jizzax shahridan 10-20 km shimolroqdan o'tadi va bir qancha mayda kanallarga tarmoqlanib ketadi. Kanal 345 ming ga dan ortiq yerlarni sug'oradi (Sirdaryo viloyatida 153,6 ming ga, Jizzax viloyatida 191,8 ming ga).

Kanalda 80 dan ziyod gidrotexnik inshoot, boshqarish shlyuzlari, 6 avtomobil va 4 temir yo'l ko'prigi, 9 suv to'sgich inshoot, 44 quloq, 6 dyuker, 12 sel o'tkazgichlar qurilgan. 1954-1971-yillarda Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlariga rahbarlik qilgan A.A.Sarkisov (1907 - 1971) nomi berilgan.

1-jadval

Mirzacho'lning asosiy kanallari

Kanal nomi	Suv manbai	Uzunligi, km	Suv sarfi m ³ /s	Tashkil etilgan yili
Jan. Mirzacho'l	Sirdaryo	127,7	545	1957 – 62
Do'stlik	Sirdaryo	116	230	1891
Tuyatortar	Zarafshon	108,2	50	I asr

Do'stlik kanali - O'zbekiston va Qozog'iston hududidagi kanal. Mirzacho'lning shimoli - sharqida. Sirdaryodagi Farhod GESining tashlama kanalidan suv oladi. Uzunligi 116 km. Suv o'tkazish imkoniyati 230 m³/s. Kanal boshidan oxirigacha tuproq o'zanidan oqadi. Kanalda 6 to'g'on, suv sarfi 0,2 dan 50 m³/s gacha bo'lgan 45 shoxobcha kanallar va 3 ta ehtiyot tashlamalar: sharqiy tashlama (40 m³/s), shimoliy tashlama (18 m³/s) va oxirgi tashlama (17 m³/s) qurilgan. Kanal Chordara suv omboriga tashlama bilan tugaydi. Kanalni 1891-yilda knyaz N.K.Romanov qazdirgan. Kanal qurilishi 6 yil davom etgan va Nikolay I arig'i deb atalgan, uzunligi 84 km bo'lgan. Kanal suvni Xo'jand shahridan quyida Qo'shtegirmon va Bekobod qishloqlari oralig'ida Sirdaryodan olgan. Kanaldan birinchi marta 1895- yilda Mirzacho'lga suv oqizilgan, 1897 -yil to'la ishga tushirilgan va 7600 ga yer suv bilan ta'minlangan. 1917- yilgacha knyaz Romanov nomi bilan yuritilgan va uni xalq Knyazariq (Knyaz ariq) deb atagan. 1918-1938- yillarda Shimoliy Mirzacho'l kanali deb yuritilgan. 1923- yildan kanal rekonstruksiya qilina boshlandi.1938-yil kanalda Sulton hovuz tindirgichi (hajmi 16 mln m³) qurildi. Qozog'iston hududida 1939- yil 1-To'qayli

tarmog'i va 400 km dan ortiq katta-kichik ariqlar chiqarilgan.

Tuyatortar kanali. Tuyatortar kanali – Zarafshon daryosidan chiqarilgan qadimgi kanal. Mirzacho'lni sug'orish uchun qazilgan dastlabki kanallardan biri. Zarafshon daryosining suvini Sangzor daryosiga quyadi. Zarafshondagi "Birinchi May" to'g'onidan boshlanadi. Eski Tuyatortar kanali milodning boshlarida qazilgan, VI-VIII asrlarda o'zaro urushlar natijasida va arablar istilosi davrida vayron bo'lgan. XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon VII davrida qayta tiklangan va keyinchalik Sirdaryo (Karay va Mirzarabot)gacha yetkazilgan. 1912-yilda Samarqand general gubernatori tomonidan qisman qayta tiklangan. Sho'rolar davrida kanal qayta qazildi. Uzunligi 108,2 km, suv o'tkazish imkoniyati 50 m³/sek.ni tashkil qiladi. Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi 34 ming ga dan ortiq ekin maydonlari sug'oriladi. 1987-yilda kanal tarrassasida Qorovultepa suv ombori qurilgan.

Viloyatda ko'plab yerlarni sug'orish va yuqori hosil olishda suv omborlarning o'rni muhim ahamiyatga ega. Viloyatda bugungi kunda yettita suv ombori mavjud bo'lib, shundan bir yilda 953 mln. m³ hajmda suv yig'iladi.

2-jadval.


Viloyatdagi suv omborlar				
T.r.	Nomi	Maydoni km ²	Suv hajmi, mln. m ³ /kub	Suv havzasi
1	Jizzax	13,8	100,0	Sangzor, Zarafshon
2	Zomin	9,3	52,0	Zominsoy
3	Qorovultepa	7,53	53,0	Zarafshon
4	Xo'jamushkent	0,45	8,0	Xo'jamushkentsoy
5	Novqa	0,60	6,0	Novqasoy
6	Sarmich	0,13	4,3	Sarmichsoy
7	Arnasoy	249	730	Sirdaryo

Jizzax viloyati ichki suvlarining shakllanish sabablarini aniqlash, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu sababdan mintaqa suvlarini hosil bo'lishi, uning miqdori va sodir bo'layotgan gidrologik jarayonlarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

2018-yilda Jizzax viloyatida kutiladigan suv ta'minoti va takroriy ekinlarni suv bilan ta'minlanganlik darajasi (1-rasm).

tahlil qilindi. Shundan viloyatda jami 318,1 ming ga maydon sug'orilib, asosiy qismi Sirdaryoga 87% (273,4 ming ga) qolgan 13% esa Zarafshon daryosi (27,2 ming ga), Zomin suv ombori (2,6 ming ga), Jizzax suv ombori (7,1 ming ga), Qorovultepa suv ombori (3,5 ming ga), Xo'jamushkent suv ombori (1,1 ming ga), Sangzor daryosi (3,2 ming ga) kabi suv obyektlariga to'g'ri kelishi tahlil qilinib o'tildi.

Suv omborlarning orni




1-rasm. Sug'oriladigan maydon ming gektarga nisbatan.

2018-yil Jizzax viloyatida suvdan foydalanish darajasi quyidagicha taqsimlangan manbalarning kutilayotgan suvlilik darajasi hamda suv ombordagi mavjud suv resurslari zahiralardan foydalanish viloyatda 780 gektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimi, 1300 gektar maydonda egatga plynka


to'shab sug'orish hamda 5000 gektar maydonda esa o'q ariqlar o'rniga ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish usullari yordamida sug'oriladi (2-rasm). Viloyat bo'yicha 2018-yilda sug'orish ishlariga jami 1886,2 mln. m³ suv yetkazib beriladi yoki bu o'rtacha ko'p yillikka nisbatan 88%ni tashkil etadi.

Jumladan:



2-rasm. Suv omborlarining suvidan foydalanish darajasi.

- Sirdaryo daryosiga bog'langan maydonlar ta'minoti 81 % yoki 1511,5 mln.m³;
 - Zarafshon daryosi – 86 % yoki 188,59 mln. m³;
 - Sangzor daryosi va boshqalar – 83 % yoki 52,6 mln. m³;
 Bunda sug'orish mavsumi davomida asosiy maydonlarga ekiladigan ekinlar uchun jami 1886,2 mln.m³ suv beriladi, shu jumladan:
 paxta maydonlariga – 604,5 mln.m³;
 g'alla maydonlariga – 280,8 mln.m³;
 aholi tomorqa yer maydonlariga – 199,0 mln.m³;
 boshqa ekinlarga – 522,5 mln.m³ suv berish imkoniyati mavjud (3-rasm).



(3-rasm).Asosiy ekin ekishga shuncha mln. m³ da suv sarflanadi.

G'alladan bo'shagan maydonlar o'rnidagi takroriy ekinlarga viloyat bo'yicha jami 279,4 mln.m³ suv yetkazib berilish imkoniyati mavjud. Bu suv bilan jami 63,5 ming gektar takroriy ekin maydonlarini sug'orish mumkin bo'ladi. Shu jumladan, Arnasoy tumanida 7500 ga, Baxmal tumanida 2100 ga, G'allaorol tumanida 1863 ga, Sh.Rashidov tumanida 6340 ga, Do'stlik tumanida 9620 ga, Zomin tumanida 7650 ga, Zarbdor tumanida 7960 ga, Zafarobod tumanida 6980 ga, Mirzacho'l tumanida 4880 ga, Paxtakor tumanida 7995 ga, Yangiobod tumanida 620 gani tashkil etadi.
 Manbalar bo'yicha: Zarafshon daryosiga bog'langan maydonlar:

Zarafshon daryosiga bog'langan maydonlarga jami 188,5 mln.m³ suv yetkazib berilib, shundan:
 paxta maydonlariga – 30,7 mln.m³;
 g'alla maydonlariga – 17,5 mln.m³;
 aholi tomorqa yer maydonlariga –40,7 mln.m³;
 boshqa ekinlarga – 99,7 mln.m³ suv berish imkoniyati mavjud.
 Shu bilan birga quyidagi hududlarda suv ko'p talab etiladigan (1 gektarga 7000 m³-dan ortiq) sabzavot va poliz ekinlarni joylashtirish tavsiya etilmaydi:
 Baxmal tumanidagi Tongotor hududlariga;
 Baxmal tumanidagi Uzunbuloq hududlariga;
 Baxmal tumanidagi Gulbuloq hududlariga;